



VI. XIZMATLAR

Xizmatlar sohasini rivojlantirish ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotini shakllantirishning eng muhim shartlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda mamlakatda olib borilayotgan bozor islohotlari jamiyatni rivojlantirishning eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini hal qilishda xizmat ko‘rsatish sohasining rolini oshirishga katta ta’sir ko‘rsatadi. Xizmatlarning xilma-xilligi aholining katta qismini hayot sifatini va farovonligini yaxshilash imkonini beradi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bozor xizmatlari ishlab chiqarish (2024- yil yanvar-dekabr)

	mlrd so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Jamiga nisbatan % da
Jami xizmatlar	43 090 ,6	112,3	100,0
<i>shu jumladan: xizmat turlari bo‘yicha</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmati	1 240,1	115,9	2,9
Moliyaviy xizmatlar	3 514,0	112,1	8,2
Transport xizmati	4 978,4	118,1	11,6
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	<i>4 355,4</i>	<i>118,3</i>	<i>10,1</i>
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	18 171,8	110,8	42,2
Savdo xizmatlari	8 110,9	113,7	18,8
Ko‘chmas mulk bilan bog‘liq bo‘lgan xizmatlar	601,8	108,6	1,4
Ta’lim sohasidagi xizmatlar	1 480,3	122,4	3,4
Sog‘lijni saqlash sohasidagi xizmatlar	735,8	110,4	1,7
Ijara va prokat xizmatlari	369,9	100,8	0,9
Kompyuterlarni va maishiy tovarlarni ta’mirlash xizmatlari	925,6	109,8	2,1
Boshqa shaxsiy xizmatlar	1 637,7	106,9	3,8
Me’morchilik, muxandislik izylanishlari, texnik sinovlarva tahlil sohasidagi xizmatlar	233,2	102,9	0,5
Boshqa turdag'i xizmatlar	1 091,1	106,1	2,5

Xizmatlar tarkibida eng katta ulushni Yashash va ovqatlanish xizmatlari (42,2 %), savdo xizmatlari (18,8 %) transport xizmatlar (11,6 %), tashkil etgan.

Xizmatlar umumiy hajmida past ulushlarni me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (0,5 %), sog'liqni saqlash xizmatlari (1,7 %) tashkil etgan.

**2024- yil yanvar-dekabr oylarida bajarilgan
xizmatlar tarkibi, (% da)**



2024- yil yanvar-dekabr oylarida bozor xizmatlari ishlab chiqarishning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha hajmi 43 090,6 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Savdo xizmatlari 113,7 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 18,8 % ni tashkil etdi.

Transport xizmati 118,1 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 11,6 % ni tashkil etdi.


Moliyaviy xizmatlar 112,1 % ga oshgan va jami xizmat tarkibida 8,2 % ni tashkil etdi.

Shaxsiy xizmatlari 106,9 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 3,8 % ni tashkil etdi.


Aloqa axborotlashtirish xizmati 115,9 % ga oshgan va jami xizmat tarkibidagi ulushi 2,9 % ni tashkil etdi.

Ta'lim sohasidagi xizmatlari 122,4 % ga oshgan bo'lib, va jami xizmat tarkibidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etdi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida ko‘rsatilgan xizmatlar tarkibi
(jam'i xajmga nisbatan, % da)




Shahar va tumanlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarilishi
(2024- yil yanvar-dekabr, mlrd. so‘m)



**Hududlar kesimida xizmatlar ishlab chiqarish hajmi
(2024- yil yanvar-dekabr)**

	Jami			Aholi jon boshiga	
	mlrd so‘m	2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da	Ulushi % da	ming so‘m	2023- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan, % da
Viloyat jami	43 090,6	112,3	100,0	13 905,1	109,9
Namangan sh.	9 042,8	117,2	21,0	12 826,7	114,2
Mingbuloq	872,8	109,4	2,0	6 310,8	107,2
Kosonsoy	1 159,6	112,5	2,7	5 030,9	110,0
Namangan t.	1 172,2	112,2	2,7	6 014,4	109,7
Norin	982,4	113,9	2,3	5 534,4	111,8
Pop	1 393,3	113,6	3,2	5 861,4	111,5
To‘raqo‘rg‘on	1 406,2	111,1	3,3	5 670,1	108,5
Uychi	1 368,3	111,2	3,2	5 825,0	108,8
Uchqo‘rg‘on	1 087,0	112,2	2,5	5 809,7	110,1
Chortoq	1 222,1	113,5	2,8	5 632,0	111,2
Chust	1 556,7	111,0	3,6	5 395,7	108,7
Yangiqo‘rg‘on	1 082,5	113,3	2,5	4 520,0	111,0


**Shahar va tumanlar kesimida ko‘rsatilgan xizmatlar hajmi aholi jon boshiga
(2024- yil yanvar-dekabr, ming so‘m)**



Hududlar kesimida xizmatlarning eng yuqori o'sish sur'ati Namangan shahrida 9 042,8 mld. so'm (117,2 %) va To'raqo'rg'on tumanida 1 406,2 mld. so'm (111,1 %)ga to'g'ri keldi.

Aholi jon boshiga eng katta xizmatlar hajmi Namangan shahrida (12 826,7 ming so'm), Mingbuloq tumanida (6 310,8 ming so'm) va Namangan tumanida (6 014,4 ming so'm) qayd etildi.

**2024- yil yanvar-dekabr oylarida alohida xizmat turlari
hajmining taqqoslanishi, mldr so'm**



■ 2023- yil yanvar-dekabr ■ 2024- yil yanvar-dekabr

Yuqori o'sish sur'atlari ta'lim sohasidagi xizmatlar (122,4 %), Aloqa va axborotlashtirish xizmatlar (115,9 %), Yashash va ovqatlanish xizmatlari (110,8 %) kabi xizmat turlarida qayd etildi.

Namangan viloyatining 2024- yil yanvar-dekabr oylarida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holati


Transport xizmatlari tarkibida yetakchi o'rinni avtomobil transportida ko'rsatilgan xizmatlar (87,5 %) egallaydi. Yordamchi transport faoliyati transport xizmatlari umumiy xajmining 11,9 % ni tashkil qiladi.

Pochta va kurerlik faoliyati bo'yicha transport xizmatlarining 0,6 % ni tashkil etadi.

Savdo xizmatlari tarkibida avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar katta salmoqqa ega. 2024- yil yanvar-dekabr oylarida uning ulushi 64,5 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarning (avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari) ulushi 18,1 % ga yetdi.

2024- yil yanvar-dekabr oylarida transport turlari bo'yicha transport xizmatlari tarkibi, % da



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

Avtomobillar va motosikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va motosikllar ulgurji va chakana savdosi bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 17,4 % ni egallaydi.



- Avtomobil va motosikllar ulgurji va chakana savdosi, avtomobil va motosikllarni ta'mirlash xizmatlarini qo'shgan xolda
- Ulgurji savdo xizmatlari (Avtomobillar va motosikllar savdosidan tashqari)
- Avtomobil va matosikllardan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar